



“TASDIQLAYMAN”
Inson resurslari bo'yicha direktor
F.M. Xoshimov
09.01.2026-yil

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJning Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish
JURNALI

2025-yil 30-dekabr holatiga (1.2.4.2)

T/r	Monitoring / tadbir turi	Chora-tadbirlarni monitoring qilish davriyligi (har chorakda/har yarim yilda/doimiy)	Monitoring / nazoratni o'tkazish sanasi	Kuzatuvni tafsiloti	Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini to'g'rilash choralari	Mas'ul ijrochi	To'g'rilanadigan chora-tadbirlar ning ijro muddati	Ijro holati
Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining yetarliligini baholash								
1.	Idoraviy-korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining aktualligi va uning qonunchilik talablari, shu jumladan xalqaro standartlar talablariga muvofiqligini monitoring qilish	Doimiy ravishda	2025-yil mart-dekabr	“NKMK” AJda ISO 37301:2021 “Komplayens menejment tizimlari. Foydalanish uchun talablar va tavsiyalar” xalqaro standarti talablari ahvoli	“NKMK” AJda ISO 37301:2021 “Komplayens menejment tizimlari. Foydalanish uchun talablar va tavsiyalar” xalqaro standartini joriy etish uchun jamiyatdagi hujjatlarni qayta inventarizatsiyadan o'tkazish, standart bo'yicha tegishli hujjatlarni ishlab chiqish, ichki va tashqi auditdan o'tkazish.	Komplayens xizmati boshlig'i R.Avezov	2025-yil mart - dekabr	“NKMK” AJda ISO 37301:2021 “Komplayens menejment tizimlari. Foydalanish uchun talablar va tavsiyalar” xalqaro standartini joriy etish bo'yicha jamiyatdagi tegishli hujjatlar inventarizatsiyadan o'tkazildi. Mazkur standart bo'yicha texnik shart ishlab chiqildi. Standart bo'yicha tegishli hujjatlar rasmiylashtirildi. Birinchi bosqich auditdan o'tkazildi.
Korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini baholash								
2.	OAV monitoringi	Doimiy ravishda	2025-yil mart	Facebook ijtimoiy tarmog'ida “Logika info servis” MChJning “NKMK” AJ bilan tuzilgan shartnomaning bandlari buzilganligidan	“NKMK” AJ mas'ul xodimlari ishtirokida ishchi guruh tuzish va joyida o'rganish	Xaridlarni tashkil etish va metodologiy asini takomillashti	10 kun muddat	Ishchi guruh tomonidan uning sabablari o'rganib chiqildi. O'rganish jarayonida “Logika info servis” MChJ bilan “NKMK” AJ o'rtasida tuzilgan shartnoma bo'yicha sudda ish

				noroziligi aks etgan xabarning tarqatilishi holati		rish bosh boshqarmasi boshlig'i M.Amonov		ko'rilayotganligi aniqlandi. Murojaatchiga sudning yakuniy qaroriga asosan xulosa qilinishi bo'yicha tegishli tushuntirish berilgan.
		2025-yil mart	Facebook ijtimoiy tarmog'ida Shimoliy kon boshqarmasida ishga kirishda pora olish holatlari kuzatilayotganligi aks etgan xabarning tarqatilishi holati	"NKMK" AJ mas'ul xodimlari ishtirokida ishchi guruh tuzish va joyida o'rganish	Komplayens xizmati boshlig'i R.Avezov Kadrlar boshqarmasi boshlig'i F.Xoshimov	10 kun muddat	Ishchi guruhi tomonidan murojaat muallifi bilan joyida murojaat o'rganib chiqilib, murojaat o'z tasdig'ini topmadi va rasmiy munasabat bildirildi.	
		2025-yil mart	Facebook ijtimoiy tarmog'ida Janubiy kon boshqarmasida ishlaydigan xotin-qizlarni Nurobod shahridan Qo'shrabot tumanidagi Zarkent qo'rg'oniga ishlash uchun majburiy ko'chirilayotganligi to'g'risida aks etgan xabarning tarqatilishi holati	"NKMK" AJ mas'ul xodimlari ishtirokida ishchi guruh tuzish va joyida o'rganish	Bosh yuriskonsult M.Xaitova Kadrlar boshqarmasi boshlig'i F.Xoshimov Ishchi guruh	10 kun muddat	Ishchi guruh tomonidan murojaat atroflicha o'rganib chiqilib, har bir xodim bilan birma-bir suhbat o'tkazilib, ko'chish imkoni bo'lmaganlar ro'yxati shakllantirildi. Ko'chish imkoniyati bo'lmagan 19 nafar (17 nafari ayollar) ishchi-xodimlar boshqa kasblarga o'qitish orqali Nurobod shahridagi Ta'mirlash-mexanika sexiga ishga joylashtirish choralari ko'rilishi belgilandi va rasmiy munosabat bildirildi.	
		2025-yil may	Facebook ijtimoiy tarmog'ida Janubiy kon boshqarmasida umumiy ovqatlanish bo'yicha yo'lga qo'yilgan autsorsing xizmatlari norozi bo'lib aks etgan xabarning tarqatilishi holati	"NKMK" AJ mas'ul xodimlari ishtirokida ishchi guruh tuzish va joyida o'rganish	Komplayens xizmati boshlig'i R.Avezov Ishchi guruh	10 kun muddat	Ishchi guruh tomonidan murojaat atroflicha o'rganib chiqilib, har bir xodim bilan birma-bir suhbat o'tkazilib, autsorsing xizmatlari to'liq o'rganildi va ma'lumotnoma rasmiylashtirildi. Barcha hujjatlar qonuniy baho berish uchun huquqni muhofaza qiluvchi idoralarga yuborildi.	
		2025-yil iyul	Facebook ijtimoiy tarmog'ida Janubiy kon boshqarmasida bo'sh ish o'rniga o'tkazilayotgan tanlovlardan norozi bo'lib aks etgan xabarning tarqatilishi	"NKMK" AJ mas'ul xodimlari ishtirokida ishchi guruh tuzish va joyida o'rganish	Kadrlar boshqarmasi boshlig'i F.Xoshimov Ishchi guruh	10 kun muddat	Ishchi guruh tomonidan murojaat atroflicha o'rganib chiqilib, har bir xodim bilan birma-bir suhbat o'tkazilib, jamiyatga ishga kirish tartibi tushuntirildi.	

				holati				
			2025-yil oktyabr	Facebook ijtimoiy tarmog'ida "NKMK" AJ ishchi xodimlar uchun sharoitlar yaratilmaganligidan norozi bo'lib aks etgan xabarning tarqatilishi holati	"NKMK" AJ mas'ul xodimlari ishtirokida ishchi guruh tuzish va joyida o'rganish	Kadrlar boshqarmasi boshlig'i F.Xoshimov Ishchi guruh	10 kun muddat	Ishchi guruh tomonidan murojaat atroflicha o'rganib chiqilib, jamiyatda yaratilgan sharoitlar bo'yicha munosabat bildirildi.
3.	Jamiyat xodimlarining korrupsiyaga qarshi asosiy tamoyil va talablardan xabardorligi monitoringi	Har yarim yilda	2025-yil yanvar - dekabr	Jamiyat xodimlarining korrupsiyaga qarshi asosiy tamoyil va talablardan xabardorligini monitoring qilish	Jamiyat markaziy apparati va tarkibiy bo'linmalari xodimlarining korrupsiyaga qarshi asosiy tamoyil va talablardan xabardorligini joyiga chiqqan holda monitoring qilish	Komplayens xizmati boshlig'i R.Avezov	2025-yil yanvar – dekabr	Komplayens xizmati tomonidan "NKMK" AJda xodimlarning korrupsiyaga qarshi asosiy talablar va tartib-taomillardan xabardorligi yuzasidan 2025-yil davomida 9 marotaba monitoring o'tkazilgan. Monitoringda 626 ta ishchi-xodimlar ishtiroki ta'minlangan.
			2025-yil fevral - dekabr	Jamiyat xodimlari orasida korrupsiyaviy xafv-xatarlar to'g'risida axborot olish hamda korrupsiyaga qarshi asosiy tamoyil va talablardan xabardorligi haqida so'rov o'tkazish	Jamiyat xodimlari orasida anonim so'rov o'tkazish natijasida korrupsiyaviy xafv-xatarlar to'g'risida axborot olish hamda korrupsiyaga qarshi asosiy tamoyil va talablardan xabardorligi haqida monitoring o'tkazish	Komplayens xizmati boshlig'i R.Avezov	2025-yil fevral – dekabr	Komplayens xizmati tomonidan 2025-yil davomida 420 nafar jamiyat xodimlari o'rtasida anonim so'rovlar va monitoring o'tkazildi. So'rov va monitoring natijasida xodimlarning bilimi hamda jamiyatdagi korrupsiyaviy holatlar tahlil qilindi. Ularni bartaraf etish bo'yicha tegishli choralar ko'rildi.
			2025-yil yanvar – dekabr	"NKMK" AJ xodimlarini korrupsiyaga qarshi asosiy tamoyil va talablardan xabardorligi yuzasidan amaldagi qonunchilik va ichki idoraviy hujjatlarni doimiy ravishda targ'ib qilish ahvoli	Ish reja asosida "NKMK" AJ xodimlariga korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilingan amaldagi qonunchilik va ichki idoraviy hujjatlarni mazmun mohiyatini tushuntirish	Komplayens xizmati boshlig'i R.Avezov Jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha direktor X.Raupov	2025-yil yanvar – dekabr	2025-yil davomida Jamiyat ishchi-xodimlari bilan 146 marotaba (jumladan, 92 ta seminar, 12 ta davra suhbat, 3 marotaba televideniya, 2 marotaba radioda, 2 marotaba gazetada, 3 marotaba brifing va 32 marotaba ijtimoiy tarmoqlar orqali) huquqiy targ'ibot va profilaktik tadbirlar o'tkazildi. Targ'ibot tadbirlarida 10 760 nafar ishchi-xodimlar ishtiroki ta'minlandi.

4.	Korrupsiyaga qarshi dasturlar, yo'l xaritalari ijrosi ustidan nazorat 2025-yil davomida Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini oshirish hamda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash yo'nalishida amalga oshirilishi rejalashtirilgan chora-tadbirlar dasturi	Har chorakda	2025-yil yanvar	“NKMK” AJda Adliya vazirligi tomonidan 2022-yil 31-avgustda 3383-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlar faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash Uslubiyoti asosida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholashni o'tkazish	“NKMK” AJning markaziy apparati va barcha tarkibiy bo'linmalarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash bo'yicha dastur tasdiqlash	Komplayens xizmati boshlig'i R.Avezov	2025-yil yanvar	Kombinatning markaziy apparati va barcha tarkibiy bo'linmalarida 2025-yil 1-choragida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash o'tkazildi. Baholash natijalariga ko'ra, 1478 ta funksiyalar baholanib, shundan 1 ta “yuqori”, 25 ta “o'rta” va 1452 ta “past” darajadagi xavf-xatarlar aniqlandi hamda ularni oldini olish va bartaraf etish yuzasidan 2025-yil 23-yanvarda 14 ta banddan iborat chora-tadbirlar Dasturi tasdiqlandi va uning ijrosi to'liq ta'minlandi.
			2025-yil yanvar	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-81-son qaroriga ko'ra, 2024-yil yakuni bo'yicha 29 turdagi ma'lumot va hisobotlarni “E-Anticor.uz” platformasiga joylashtirish	Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini baholash reytingini yaxshilash choralari ko'rish	Komplayens xizmati boshlig'i R.Avezov	2025-yil yanvar	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-81-son qaroriga ko'ra, 2024-yil bo'yicha 29 turdagi ma'lumot va hisobotlar hamda ularni tasdiqlovchi hujjatlar “E-Anticor.uz” elektron platformasiga kiritildi.
			2025-yil yanvar, iyul	Jamiyat faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, ularning jamoatchilik va fuqarolar oldida hisobdorligini oshirish maqsadida ommaviy axborot vositalari vakillari va korxona ishchi-xodimlari ishtirokida brifing o'tkazish.	Har yarim yilda jamiyat faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash bo'yicha jamoatchilik va fuqarolar oldida hisobot berish.	Komplayens xizmati boshlig'i R.Avezov	2025-yil yanvar, iyul	Jamiyat faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, ularning jamoatchilik va fuqarolar oldida hisobdorligini oshirish maqsadida ommaviy axborot vositalari vakillari va korxona ishchi-xodimlari ishtirokida 2025-yil 30-yanvar kuni “NKMK” AJ Markaziy apparati binosida, 12-mart va 17-iyul kunlari Navoiy shahridagi “Farxod” madaniyat saroyining kichik majlislar zalida

							hamda 17-dekabrda Markaziy apparati binosida brifing o'tkazildi.
		2025-yil davomida	Jamiatda qabul qilingan ichki idoraviy hujjatlarni (yoki loyihalar) korrupsiyaga qarshi huquqiy ekspertizadan o'tkazish, tahlil qilish va doimiy ravishda o'zgartirish yoki qo'shimchalar kiritib borishni ta'minlash.	Jamiatda qabul qilingan ichki idoraviy hujjatlar (yoki loyihalar)ni korrupsiyaga qarshi huquqiy ekspertizadan o'tkazish	Komplayens xizmati boshlig'i R.Avezov	2024-yil yanvar – dekabr	Komplayens xizmati tomonidan 2025-yil davomida jami 8 074 ta (7084 ta buyruq va 990 ta farmoyish) ichki idoraviy hujjatlar korrupsiyaga qarshi huquqiy ekspertizadan o'tkazildi. Korrupsiyaviy ekspertiza natijasida 168 ta ichki idoraviy hujjatlar normativ-huquqiy yoki ichki idoraviy hujjatlar talablariga muvofiqlashtirildi.
		2025-yil fevral	“NMZ” IchB ishchi-xodimlariga Monopoliyaga qarshi komplaens tizimi, Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, Odob-axloq kodeksi qoidalari hamda boshqa normativ-huquqiy va ichki idoraviy hujjatlarni targ'ibot qilish va o'quv seminar mashg'ulotlarini tashkil etish.	“NMZ” IchB ishchi-xodimlariga normativ-huquqiy va ichki idoraviy hujjatlarni targ'ibot qilish.	Komplayens xizmati boshlig'i R.Avezov	2025-yil fevral	Komplayens xizmati tomonidan 2025-yil 26-28-fevral kunlari “NMZ” IchB ishchi-xodimlariga Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi, Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, Odob-axloq kodeksi qoidalari hamda boshqa normativ-huquqiy va ichki idoraviy hujjatlar yuzasidan targ'ibot tadbirlari tashkil etildi. Targ'ibot tadbirlarida 430 nafar ishchi-xodimlar ishtiroki ta'minlandi.
		2025-yil dekabr	ISO 37301:2021 Komplaens menejment tizimi xalqaro standarti sertifikatini olish: Xarid jarayonlarini tashkil etish, birinchi bosqich auditdan o'tkazish.	ISO 37301:2021 Komplayens menejment tizimi xalqaro standarti sertifikatini olish: Texnik shart ishlab chiqish. Xarid jarayonlarini tashkil etish. Birinchi bosqich auditdan o'tkazish.	Komplayens xizmati boshlig'i R.Avezov XTE va MT boshqarmasi boshlig'i M.Amonov	2025-yil dekabr	ISO 37301:2021 Komplayens menejment tizimi xalqaro standarti sertifikatini olish uchun texnik shart ishlab chiqildi. Standart bo'yicha tegishli hujjatlar rasmiylashtirildi. Birinchi bosqich auditdan o'tkazildi.
		2025-yil mart	Jamiatda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash yo'nalishida 2024 yil yakuni bo'yicha tegishli ma'lumotlarni rasmiy veb-saytga joylashtirish. Jamiatning www.nkmk.uz rasmiy	Jamiatning www.nkmk.uz rasmiy veb-sayti hamda ichki portalida joriy etilgan “Korrupsiyaga qarshi kurashish” va “Ochiq ma'lumotlar” bo'limlarida ichki idoraviy hujjatlar, e'lon qilinishi belgilangan	Komplayens xizmati boshlig'i R.Avezov Jamoatchilik bilan aloqalar	2025-yil mart	Jamiatning www.nkmk.uz rasmiy veb-sayti hamda ichki portalida joriy etilgan “Korrupsiyaga qarshi kurashish” va “Ochiq ma'lumotlar” bo'limlarida ichki idoraviy hujjatlar, e'lon qilinishi belgilangan ma'lumotlar,

				veb-sayti hamda ichki portalida joriy etilgan “Korrupsiyaga qarshi kurashish” va “Ochiq ma’lumotlar” bo’limlarida ichki idoraviy hujjatlar, e’lon qilinishi belgilangan ma’lumotlar, murojaatlarni yuborish uchun tegishli aloqa kanallari to’g’risidagi ma’lumotlar hamda ijtimoiy videoroliklarni joylashtirish. (PF-6247, PF-154, 07.02.2022 yildagi 84-buyruq, 06.12.2022 yildagi Chora-tadbirlar rejasi)	ma’lumotlar, murojaatlarni yuborish uchun tegishli aloqa kanallari to’g’risidagi ma’lumotlar hamda ijtimoiy videoroliklarni joylashtirish.	bo’yicha direktor X.Raupov AKTB B.Davlatov		murojaatlarni yuborish uchun tegishli aloqa kanallari to’g’risidagi ma’lumotlar hamda ijtimoiy videoroliklarni joylashtirildi.
			2025-yil mart	“Qizilqum” kon boshqarmasi ishchi-xodimlariga Monopoliyaga qarshi komplaens tizimi, Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, Odob-axloq kodeksi qoidalari hamda boshqa normativ-huquqiy va ichki idoraviy hujjatlarni targ’ibot qilish va o’quv seminar mashg’ulotlarini tashkil etish.	“Qizilqum” kon boshqarmasi ishchi-xodimlariga normativ-huquqiy va ichki idoraviy hujjatlarni targ’ibot qilish.	Komplayens xizmati boshlig’i R.Avezov	2025-yil mart	Komplayens xizmati tomonidan 2025-yil 13-28-mart kunlari “Qizilqum” kon boshqarmasining 13 ta bo’linmalari ishchi-xodimlariga Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi, Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, Odob-axloq kodeksi qoidalari hamda boshqa normativ-huquqiy va ichki idoraviy hujjatlar yuzasidan targ’ibot tadbirlari tashkil etildi. Targ’ibot tadbirlarida 1140 nafar ishchi-xodimlar ishtiroki ta’minlandi.
			2025-yil aprel	O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-81-son qaroriga ko’ra, 2025-yil	Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini baholash reytingini yaxshilash choralari ko’rish	Komplayens xizmati boshlig’i R.Avezov	2025-yil aprel	O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-81-son qaroriga ko’ra, 2025-yil 1-chorak bo’yicha 29 turdagi ma’lumot va hisobotlar hamda ularni tasdiqlovchi

				1-choragi bo'yicha 29 turdagi ma'lumot va hisobotlarni "E-Anticor.uz" platformasiga joylashtirish			hujjatlar "E-Anticor.uz" elektron platformasiga kiritildi.
		2025-yil aprel	"Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonun talablari ijrosini ta'minlash maqsadida, xarid jarayonlari hujjatlari qonunchilik talablariga muvofiqligini o'rganish.	Xarid jarayonlari hujjatlari qonunchilik talablariga muvofiqligini o'rganish.	Komplayens xizmati boshlig'i R.Avezov	2025-yil aprel	"Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonun talablari ijrosini ta'minlash maqsadida, Xaridlarni tashkil etish va metodologiyasini takomillashtirish Bosh boshqarmasida xarid jarayonlari hujjatlari qonunchilik talablariga muvofiqligi o'rganib chiqildi. Rahbariyatga axborot kiritildi. Natijasi bo'yicha tegishli hujjatlarga o'zgartirish kiritildi.
		2025-yil davomida	Jamiyatda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash bo'yicha rasmiy veb-saytda tegishli ma'lumotlarni joylashtirilishini doimiy nazorat qilish. (PF-6247, PF-154, 07.02.2022 yildagi 84-buyruq, 06.12.2022 yildagi chora-tadbirlar rejasi)	Normativ-huquqiy hujjatlarda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash bo'yicha lozim bo'lgan ma'lumotlarni rasmiy veb-saytda joylashtirish.	Komplayens xizmati boshlig'i R.Avezov	2025-yil davomida	Jamiyatning 2024-yil 9-fevraldagi tegishli buyrug'i bilan tasdiqlangan "NKMK" AJning faoliyatiga oid ochiq e'lon qilinishi lozim bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar rasmiy veb-saytga e'lon qilinishi ta'minlandi.
		2025-yil aprel	Janubiy kon boshqarmasi ishchi-xodimlariga Monopoliyaga qarshi komplaens tizimi, Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, Odob-axloq kodeksi qoidalari hamda boshqa normativ-huquqiy va ichki idoraviy hujjatlarni targ'ibot qilish va o'quv seminar mashg'ulotlarini tashkil etish.	Janubiy kon boshqarmasi ishchi-xodimlariga normativ-huquqiy va ichki idoraviy hujjatlarni targ'ibot qilish.	Komplayens xizmati boshlig'i R.Avezov	2025-yil aprel	Komplayens xizmati tomonidan 2025-yil 28-30-aprel kunlari Janubiy kon boshqarmasining 5 ta bo'linmalari ishchi-xodimlariga Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi, Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, Odob-axloq kodeksi qoidalari hamda boshqa normativ-huquqiy va ichki idoraviy hujjatlar yuzasidan targ'ibot tadbirlari tashkil etildi. Targ'ibot tadbirlarida 302 nafar ishchi-xodimlar ishtiroki ta'minlandi.
		2025-yil	O'zbekiston	"Ochiqlik indeksi" bo'yicha	Komplayens	2025-yil	O'zbekiston Respublikasi

			yanvar - dekabr	Respublikasi qarshi Ko'rrupsiyaga kurashish agentligi tomonidan olib boriladigan "Ochiqlik indeksi"da 2024-yil yakuni bo'yicha erishilgan natijasini yaxshilash chorasini ko'rish.	2024-yil yakuni yuzasidan erishilgan natijani yaxshilash chorasini ko'rish.	xizmati boshlig'i R.Avezov	yanvar - dekabr	Prezidentining 2022 yil 14 iyundagi "Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 154-son Farmoniga muvofiq, davlat tashkilotlari faoliyatida har yili ochiqlik bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligi va natijadorligini baholashga qaratilgan "Ochiqlik indeksi"ning 2024 yil uchun yakuniy natijalariga ko'ra, davlat organlari va tashkilotlarning faoliyati samaradorligi baholanib, "NKMK" AJ 89,2 ball bilan eng yuqori samaradorlik ko'rsatkichlaridan birini qayd etib, faxrli 4-o'rinni egalladi. Yil davomida mazkur indeksni yaxshilash bo'yicha ma'lumotlar tegishli elektron platformaga kiritildi.
			2025-yil yanvar - dekabr	Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini baholash reytingida Jamiyatning 2024-yil yakuni bo'yicha erishilgan natijasini yaxshilash choralari ko'rish.	Jamiyatning 2024-yil yakuni bo'yicha erishilgan natijasini yaxshilash	Komplayens xizmati boshlig'i R.Avezov	2025-yil yanvar - dekabr	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan e'lon qilingan 2024-yil yakunlari bo'yicha reyting baholash natijalariga ko'ra, davlat organlari va tashkilotlari orasida "NKMK" AJ 96 ball bilan faxrli 1-o'rinni egalladi. Yil davomida mazkur reytingni yaxshilash bo'yicha 29 turdagi ma'lumot va hisobotlar hamda ularni tasdiqlovchi hujjatlar "E-Anticor.uz" elektron platformasiga kiritildi.
			2025-yil may-iyun	Shimoliy kon boshqarmasi ishchi-xodimlariga Monopoliyaga qarshi komplaens tizimi, Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, Odob-	Shimoliy kon boshqarmasi ishchi-xodimlariga normativ-huquqiy va ichki idoraviy hujjatlarni targ'ibot qilish.	Komplayens xizmati boshlig'i R.Avezov	2025-yil iyun	Komplayens xizmati tomonidan 2025-yil 2-5-iyun kunlari Shimoliy kon boshqarmasining 7 ta bo'linmalari ishchi-xodimlariga Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi, Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, Odob-

				axloq kodeksi qoidalari hamda boshqa normativ-huquqiy va ichki idoraviy hujjatlarni targʻibot qilish va oʻquv seminar mashgʻulotlarini tashkil etish.				axloq kodeksi qoidalari hamda boshqa normativ-huquqiy va ichki idoraviy hujjatlar yuzasidan targʻibot tadbirlari tashkil etildi. Targʻibot tadbirlarida 1750 nafar ishchi-xodimlar ishtiroki taʼminlandi.
		2025-yil yanvar - dekabr	Jamiyat tizimida “Manfaatlar toʻqnashuvi toʻgʻrisida”gi Qonun ijrosini taʼminlash, manfaatlar toʻqnashuvi holatlarini oldini olish, aniqlangan holatlarni bartaraf etish choralarini koʻrish.	“Manfaatlar toʻqnashuvi toʻgʻrisida”gi Qonun ijrosini taʼminlash, manfaatlar toʻqnashuvi holatlarini oldini olish, aniqlangan holatlarni bartaraf etish choralarini koʻrish.	Komplayens xizmati boshligʻi R.Avezov Kadrlar boshqarmasi boshligʻi F.Xoshimov	2025-yil yanvar - dekabr	Jamiyatda faoliyat yuritayotgan 5 499 nafar boshqaruv xodimlaridan yillik ehtimoliy manfaatlar toʻqnashuvi toʻgʻrisidagi deklaratsiya toʻldirildi. Dastlabki tahlillar natijasida 22 ta mavjud va 73 ta ehtimoliy manfaatlar toʻqnashuvi holatlari aniqlandi hamda ularni bartaraf etish boʻyicha Odo-baxloq komissiyalari tomonidan tegishli tartibda qarorlar qabul qilindi.	
		2025-yil may	Markaziy kon boshqarmasi ishchi-xodimlariga Monopoliyaga qarshi komplaens tizimi, Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, Odo-baxloq kodeksi qoidalari hamda boshqa normativ-huquqiy va ichki idoraviy hujjatlarni targʻibot qilish va oʻquv seminar mashgʻulotlarini tashkil etish.	Markaziy kon boshqarmasi ishchi-xodimlariga normativ-huquqiy va ichki idoraviy hujjatlarni targʻibot qilish.	Komplayens xizmati boshligʻi R.Avezov	2025-yil may	Komplayens xizmati tomonidan 2025-yil 21-29-may kunlari Markaziy kon boshqarmasining 19 ta boʻlinmalari ishchi-xodimlariga Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi, Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, Odo-baxloq kodeksi qoidalari hamda boshqa normativ-huquqiy va ichki idoraviy hujjatlar yuzasidan targʻibot tadbirlari tashkil etildi. Targʻibot tadbirlarida 1972 nafar ishchi-xodimlar ishtiroki taʼminlandi.	
		2025-yil iyul	Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-81-son	Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini baholash reytingini yaxshilash choralarini koʻrish	Komplayens xizmati boshligʻi R.Avezov	2025-yil iul	Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-81-son qaroriga koʻra, 2025-yil 2-choragi boʻyicha 29 turdagi maʼlumot va hisobotlar	

				qaroriga ko'ra, 2025-yil 2-choragi bo'yicha 29 turdagi ma'lumot va hisobotlarni "E-Anticor.uz" platformasiga joylashtirish			hamda ularni tasdiqlovchi hujjatlar "E-Anticor.uz" elektron platformasiga kiritildi.
		Har olti oyda	Komplayens xizmati xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida xalqaro seminar, trening va malaka oshirish kurslarida o'qitish.	Korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida malaka oshirish kurslarida o'qitish.	Komplayens xizmati boshlig'i R.Avezov	2025-yil iyun 2025-yil dekabr	Jamiyatning 2025-yil 30-aprelidagi 325-sonli buyrug'iga asosan joriy yilning 15 – 27 iyun kunlari Komplaens xizmatining 3 nafar xodimlari Buyuk Britaniyada tashkil etilgan malaka oshirish kurslarida muvaffaqiyatli ishtirok etib, xalqaro darajadagi sertifikatlarni qo'lga kiritdi. Shu bilan birga, Jamiyatning 2025-yil 27-oktyabrdagi 793-sonli buyrug'iga asosan joriy yilning 17 – 26 noyabr kunlari Komplaens xizmatining 4 nafar xodimlari Chexiyaning Praga shaxrida tashkil etilgan malaka oshirish kurslarida muvaffaqiyatli ishtirok etib, xalqaro darajadagi sertifikatlarni qo'lga kiritdi.
		2025-yil iyul-avgust	Navoiy maydonidagi bo'linmalar ishchi-xodimlariga Monopoliyaga qarshi komplaens tizimi, Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, Odoxloq kodeksi qoidalari hamda boshqa normativ-huquqiy va ichki idoraviy hujjatlarni targ'ibot qilish va o'quv seminar mashg'ulotlarini tashkil etish.	Navoiy maydonidagi bo'linmalar ishchi-xodimlariga normativ-huquqiy va ichki idoraviy hujjatlarni targ'ibot qilish.	Komplayens xizmati boshlig'i R.Avezov	2025-yil iyul-avgust	Komplayens xizmati tomonidan 2025-yil 20-27-avgust kunlari Navoiy maydonidagi 4 ta bo'linmalar ishchi-xodimlariga Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi, Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, Odoxloq kodeksi qoidalari hamda boshqa normativ-huquqiy va ichki idoraviy hujjatlar yuzasidan targ'ibot tadbirlari tashkil etildi. Targ'ibot tadbirlarida 304 nafar ishchi-xodimlar ishtiroki ta'minlandi.
		2025-yil oktyabr	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil	Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini baholash reytingini yaxshilash	Komplayens xizmati boshlig'i	2025-yil oktyabr	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi "Korrupsiyaga

				12-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-81-son qaroriga ko‘ra, 2025-yil 3-choragi bo‘yicha 29 turdagi ma’lumot va hisobotlarni “E-Anticor.uz” platformasiga joylashtirish	choralarini ko‘rish	R.Avezov		qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-81-son qaroriga ko‘ra, 2025-yil 3-choragi bo‘yicha 29 turdagi ma’lumot va hisobotlar hamda ularni tasdiqlovchi hujjatlar “E-Anticor.uz” elektron platformasiga kiritildi.
			2025-yil noyabr - dekabr	“9 dekabr – Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni” munosabati bilan Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish oyligini o‘tkazish.	“9 dekabr – Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni” munosabati bilan korrupsiyaga qarshi kurashish oyligini o‘tkazishni tashkil etish.	Komplayens xizmati boshlig‘i R.Avezov	2025-yil noyabr - dekabr	“NKMK” AJning 2025-yil 4-noyabrda tegishli farmoyishiga asosan Jamiyatda 2025-yil 10-noyabrdan 10-dekabr qadar “Korrupsiyaga qarshi kurashish oyligi” va “Ochiq eshiklar kuni” tadbirlarini yuqori saviyada o‘tkazish belgilandi. Shunga ko‘ra, Jamiyat faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash, ularning jamoatchilik va fuqarolar oldida hisobdorligini ta’minlash maqsadida ommaviy axborot vositalari vakillari va korxona ishchi-xodimlari ishtirokida 2025-yil 20-noyabr kuni Navoiy shahridagi “NKMK tarixi” muzeyida “9 dekabr – Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni”ga bag‘ishlangan “Ochiq eshiklar kuni” tadbiri tashkil etildi. Shu bilan birga, “Korrupsiyaga qarshi kurashish oyligi” davrida xodimlarni huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish yuzasidan 17 marotaba targ‘ibot

								tarbirlari oʻtkazilib, shundan 8 ta seminar, 6 ta davra suhbat va 3 ta televideniyada chiqishlar qilindi. Tadbirlarda 1 455 nafar xodimlar ishtiroki taʼminlandi. Bundan tashqari, Oylik davrida 48445 nafar xodimlar korrupsiyaga qarshi kurashish boʻyicha ichki idoraviy hujjatlar bilan tanishtirildi.
			2025-yil yanvar - dekabr	Jamiyat bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishuvchi xorijiy jismoniy va yuridik shaxs hamda banklarni sanksiyalar boʻyicha nazoratdan otkazib borish.	“NKMK” AJ bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishuvchi xorijiy jismoniy va yuridik shaxs hamda banklarni sanksiyalar boʻyicha nazorat qiluvchi Komissiya tomonidan kontragent hujjatlari sanksiyaviy nazoratdan oʻtkazish.	Komplayens xizmati boshligʻi R.Avezov	2025-yil yanvar - dekabr	Jamiyat bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishmoqchi boʻlgan 1 368 ta kontragentlar tekshirildi. “NKMK” AJ bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishuvchi xorijiy jismoniy va yuridik shaxs hamda banklarni sanksiyalar boʻyicha nazorat qiluvchi Komissiya (komissiya tarkibiga Komplaens xizmati kiritilgan) tomonidan 16 ta kontragent hujjatlari sanksiyaviy nazoratdan oʻtkazildi.
			2025-yil yanvar - dekabr	Jamiyatga xodimlarni ishga qabul qilish va boshqa ishga oʻtkazish boʻyicha komissiyaning hamda homiylik va xayriya yordamlarini koʻrsatish komissiyasining yigʻilishlarida komissiya aʼzosi sifatida ishtirok etish.	Xodimlarni ishga qabul qilish va boshqa ishga oʻtkazish boʻyicha komissiyaning hamda homiylik va xayriya yordamlarini koʻrsatish komissiyasining yigʻilishlarida ishtirok etish.	Komplayens xizmati boshligʻi R.Avezov	2025-yil yanvar - dekabr	Jamiyatga xodimlarni ishga qabul qilish va boshqa ishga oʻtkazish boʻyicha komissiyaning 763 ta hamda homiylik va xayriya yordamlarini koʻrsatish komissiyasining 81 ta yigʻilishlarida komissiya aʼzosi sifatida ishtirok etildi.
5.	Jamiyatdagi korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan nazorat “Navoiy kon-metallurgiya	Har chorakda	2025-yil yanvar	Inson resurslari (HR) departamenti faoliyati amaldagi qonunchilik hujjatlari va “NKMK” AJning ichki idoraviy hujjatlariga asosan tashkil etilishi ahvolini oʻrganish.	Inson resurslari (HR) departamenti faoliyatini toʻgʻri yoʻlga qoʻyilganligi holatini oʻrganish.	Komplayens xizmati boshligʻi R.Avezov	2025-yil yanvar	“NKMK” AJning 2025-yil 8-yanvardagi 6-sonli farmoyishiga asosan Inson resurslari (HR) departamenti faoliyati amaldagi qonunchilik hujjatlari va “NKMK” AJning ichki idoraviy hujjatlariga asosan tashkil etilishi ahvoli oʻrganildi. Oʻrganish natijasida 2 nafar xodim intizomiy javobgarlikka

kombinati” AJning korrupsiyaga qarshi kurashish bo’yicha talablar va tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan nazorat rejasi							tortildi va chora tadbirlar rejasi ishlab chiqildi.
	2025-yil yanvar	Markaziy apparat Ofis-menejer boshqarmasi faoliyatini tahlil qilish	Ofis-menejer boshqarmasi faoliyatini o’rganish	Komplayens xizmati boshlig’i R.Avezov	2025-yil yanvar	“NKMK” AJning tegishli farmoyishiga asosan Ofis-menejer boshqarmasi faoliyatini tahlil qilindi. Tahlil natijasida rahbariyatga axbotot taqdim etildi. Kamchiliklarga yo’qo’ygan Umumiy bo’lim boshlig’i intizomiy javobgarlikka tortildi.	
	2025-yil yanvar-fevral	Shimoliy kon boshqarmasida transport vositalariga o’rnatilgan JPS ma’lumotlari va yo’nalish varaqalarini qonuniy rasmiylashtirilishini o’rganish	Transport vositalariga o’rnatilgan JPS ma’lumotlari va yo’nalish varaqalarini qonuniyligini o’rganish	Komplayens xizmati boshlig’i R.Avezov	2025-yil yanvar-fevral	“NKMK” AJning tegishli farmoyishiga asosan Shimoliy kon boshqarmasida transport vositalariga o’rnatilgan GPS ma’lumotlari va yo’nalish varaqalari o’rganildi. Natijada haydovchilarga noto’g’ri hisobotlar taqdim etilishi natijasida to’langan ortiqcha mablag’larni qaytarish choralari ko’rildi.	
	2025-yil yanvar-may	Zarafshon qurilish boshqarmasining 4-sonli avtobazasida yoqilg’i moylash mahsulotlari sarfini o’rganish.	Yoqilg’i moylash mahsulotlari sarfini o’rganish	Komplayens xizmati boshlig’i R.Avezov	2025-yil yanvar-may	“NKMK” AJning tegishli farmoyishiga asosan Zarafshon qurilish boshqarmasining 4-sonli avtobazasida o’tkazilgan o’rganishda yoqilgi sarfi normalarning noto’g’ri qo’llanilishi aniqlandi. O’rganish natijasida hujjatlar huquqni muhafaza qiluvchi idoralarga qonuniy qaror qabul qilish uchun yuborildi.	
	2025-yil aprel-may	“Qizilqum” kon boshqarmasi “Aristantau” kareri ishchi xodimlariga qo’llanilgan mukofotlash miqdorlari qonuniyligini o’rganish.	Mehnatga haq to’lashda mukofotlash miqdorlarining to’g’ri qo’llanilishi holatini o’rganish.	Komplayens xizmati boshlig’i R.Avezov	2025-yil aprel-may	“NKMK” AJning tegishli farmoyishiga asosan “Qizilqum” kon boshqarmasi “Aristantau” kareri ishchi xodimlariga qo’llanilgan mukofotlash miqdorlari qonuniyligi o’rganildi. O’rganish natijasida hujjatlar huquqni muhafaza qiluvchi idoralarga qonuniy qaror qabul qilish uchun yuborildi.	
	2025-yil may-iyun	Janubiy kon boshqarmasida tashkil	Autsorsing xizmatini qonuniyligini o’rganish	Komplayens xizmati	2025-yil may-iyun	“NKMK” AJning tegishli farmoyishiga asosan Janubiy kon	

				etilgan autsorsing xizmatini qonuniy yo'lga qo'yilishi ahvolini o'rganish.		boshlig'i R.Avezov		boshqarmasi va uning tizimida tashkil etilgan autsorsing xizmati qonuniyligi o'rganildi. O'rganish natijasida hujjatlar huquqni muhafaza qiluvchi idoralarga qonuniy qaror qabul qilish uchun yuborildi.
			2025-yil avgust-sentabr	“Auminzo-Amantoy” konida moy va moylash mahsulotlarini texnik yo'qotilishi holatlarini tanlov asosida o'rganish.	Konda moy va moylash mahsulotlarini texnik yo'qotilishini o'rganish	Komplayens xizmati boshlig'i R.Avezov	2025-yil avgust-sentabr	“NKMK” AJning tegishli farmoyishiga asosan Shimoliy kon boshqarmasida “Auminzo-Amantoy” konida moy va moylash mahsulotlari texnik yo'qotilishi holatlari o'rganildi. O'rganishda moy va moylash mahsulotlari texnik yo'qotilishi holatlari uchun rasmiylashtirilgan dalolatnomalarda mashinistlarning imzolari mavjud emasligi, moy yo'qotilgan va moy quyilgan vaqtda ishtirok etuvchi shaxslar kiritilmagangi, dalolatnomalar o'z vaqtida rasmiylashtirilmaganligi va boshqa holatlar aniqlandi. O'rganish natijasida hujjatlar huquqni muhafaza qiluvchi idoralarga qonuniy qaror qabul qilish uchun yuborildi.
			2025-yil avgust	Janubiy kon boshqarmasiga qarashli yer osti konlarida zakladka (to'ldirish) ishlari ahvolini o'rganish	Yer osti konlarida zakladka (to'ldirish) ishlarini o'rganish	Komplayens xizmati boshlig'i R.Avezov	2025-yil avgust	“NKMK” AJning tegishli farmoyishiga asosan Janubiy kon boshqarmasiga qarashli yer osti konlarida zakladka (to'ldirish) ishlari ahvolini o'rganildi. O'rganishda “G'ujumsoy” konida bir qator kamchiliklar aniqlandi. Rahbariyatga axborot kiritildi. Natijada bartaraf etish bo'yicha ko'rsatma berildi.
			2025 yil avgust	Jamiyatda mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi sohasida amalga oshirilgan ishlarni tahlil qilish	Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi sohasida amalga oshirilgan ishlarni tahlil qilish	Komplayens xizmati boshlig'i R.Avezov	2025-yil avgust	“NKMK” AJning tegishli farmoyishiga asosan Jamiyatda mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi sohasida amalga oshirilgan ishlarni tahlil qilindi. Natijada Mehnat

								muhofazasi, sanoat xavfsizligi va ekologiya (ESG) bo'yicha direktori A.P.Cherdansevning faoliyati davomida qo'l ostidagi xodimlar ustidan nazoratni susaytirib yuborganligi, Jamiyatning buyruqlarida keltirilgan topshiriqlar ijrosini o'z vaqtida va sifatli bajarilishini nazoratga olmaganligi va Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi Bosh boshqarmasi boshlig'i Tursunov Alisher Renatovich, Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi Bosh boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari Radjapov Xamza Yurevichlar o'zlariga yuklatilgan vazifalarni lozim darajada bajarmaganligi aniqlandi. Kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tegishli ko'rsatma berildi.
			2025 yil dekabr	Yengil transport vositalariga o'rnatilgan ehtiyot qismlarning sifatini o'rganish	Jamiyatdagi yengil transport vositalariga o'rnatilgan ehtiyot qismlarning sifatini o'rganish	Komplayens xizmati boshlig'i R.Avezov	2025 yil dekabr	“NKMK” AJning tegishli farmoyishiga asosan Jamiyatdagi yengil transport vositalariga o'rnatilgan ehtiyot qismlarning sifati yuzasidan o'rganish o'tkazildi. Natijasi yuzasidan rahbariyatga axborot kiritildi.

Komplayens xizmati boshlig'i


R.F. Avezov